

## MINNATDORCHILIK – MULOQOT MANBAI SIFATIDA

**Oripova Parvina Valisherovna**

Buxoro davlat universiteti  
Filologiya fakulteti 2- bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: **Toirova Guli Ibragimovna**

BuxDU, O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası  
Professori, filologiya fanlar doktori.  
E-mail: [tugulijon@mail.ru](mailto:tugulijon@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada minnatdorchilik ko'rinishlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot keltirilgan. Qolaversa, muloqot va kommunikatsiya tushunchalariga izoh berilib, ular o'rtasidagi tafovutlar ochib berilgan. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqotning ta'sir doirasi aks ettirilgan. Noverbal nutqning o'ziga xosliklari va bu nutqni yuzaga keltiruvchi vositalar va holatlarning namoyon bo'lishi mavjud. Kognitiv, emotiv, konativ muloqot turlari haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** muloqot, kommunikatsiya, emotiv nutq, kognitiv nutq, konativ nutq, kommunikativ-axborotli nutq, interaktiv nutq, perseptiv nutq.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о выражениях благодарности и их специфических характеристиках, а также раскрыты понятия диалога и общения и выявлены различия между ними. Отражена сфера влияния общения и говорящего и слушающего, выявлены особенности невербальной речи и проявления средств и ситуаций, создающих эту речь. Высказано мнение о типах когнитивной, эмоциональной и волевой коммуникации.

**Ключевые слова:** диалог, общение, эмоциональная речь, познавательная речь, конативная речь, коммуникативно-познавательная речь, интерактивная речь, перцептивная речь.

**Annotation:** This article provides information about expressions of gratitude and their specific characteristics. In addition, the concepts of dialogue and communication are explained and the differences between them are revealed. The sphere of influence of the communication between the speaker and the listener is reflected. There are features of non-verbal speech and the manifestation of means and thev situations that create this speech. An opinion was expressed about the types of cognitive, emotive, and conative communication.

**Keywords:** communication, emotive speech, cogonative speech, communicative-informative speech, interactive speech, perceptive speech.

### Kirish

Insonning kim ekanligi, qanday xarakterga egaligi uning so'zlagan nutqi orqali namoyon bo'ladi. So'z shunday qudratli kuchki, inson so'zlayotganda tafakkuridagi so'zlar sandig'idan eng keraklisini tanlab olib, suhbatdoshiga ta'sir ko'rsatishni istaydi va buni o'z nutqi orqali amalga oshiradi. Shundagina uning asl xislati, xarakteri namoyon bo'ladi. Bu vaqtda tilda verbal va

noverbal muloqot vositalari muhim o'rin tutadi. Verbal aloqa – zarur shart sifatida tilni o'zlashtirishni belgilab beradigan faqat insonlarga xos bo'lgan jarayon. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ (o'zaro aloqaga doir) jihati hisobga olinadi. Muloqot tushunchasini kommunikatsiyadan farqlash darkor. Kommunikatsiya tirik va o'lik tabiatdagi tizimlar o'rtasida axborot almashinuvini anglatadi. Hayvonlar o'rtasidagi signallar almashinuvi, insonning texnik vositalar bilan aloqa qilishi – bularning barchasi kommunikatsiya. Muloqot esa faqat insonlar o'rtasidagina amalga oshirilishi mumkin. Demak, muloqot jarayonida kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish), va perseptiv (o'zaro birgalikda) idrok etish amalga oshiriladi. Noverbal aloqa – so'zlardan foydalanmasdan xabarlarini yuborish va qabul qilish jarayoni. Noverbal (nutqsiz) kommunikatsiya vositalariga yuz ifodasi, mimika, ohang, pauza, poza (holat), ko'z yosh, kulgi va boshqalar kiradi. Imo – ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum insonga ta'sir ko'rsatishda ko'p so'zli tushuntirish va e'tiroz bildirishga qaraganda ancha samarali muomala vositalari sanaladi. Bu vositalar verbal kommunikatsiya – so'zni to'ldiradi, kuchaytiradi va ba'zan uning o'rnini bosadi.

### Asosiy qism

Minnatdorchilik beshta:

- Shaxslararo
  - Kognitiv
  - Kommunikativ-axborotli
  - Emotiv
  - Konativ tomonlarining birligida namoyon bo'ladi.
1. Muloqotning shaxslararo tomoni insonning bevosita atrof – muhiti: boshqa odamlar va o'z hayotida bog'liq bo'ladigan umumiyliklar bilan o'zaro ta'sirini aks ettiradi.
  2. Muloqotning kognitiv tomoni suhbatdoshning kim, qanday odam ekanligi, undan nima kutish mumkinligi haqidagi, shuningdek, sherikning shaxsi bilan bog'liq bo'lgan boshqa ko'pgina savollarga javob berish imkonini beradi.
  3. Muloqotning kommunikativ-axborotli tomoni tasavvurlar, g'oyalar, qiziqishlar, hissiyotlar, mayllar va shunga o'xshashlari turlicha bo'lgan odamlar o'rtasidagi almashinuvdan iborat.
  4. Muloqotning emotiv tomoni sheriklarning shaxsiy aloqalaridagi his-tuyg'ular, kayfiyatning vazifa bajarishlari bilan bog'liq.
  5. Muloqotning konativ (xulq-atvor) tomoni sheriklar qarashlaridagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Bunda quyidagilar muhim ahamiyatga ega: ohang, emotsional ifodalanganlik, bir xil iboraga turlicha ma'no berishga qodir. Suhbatdoshning mimikasi, gavda holati, nigohi ibora ma'nosini kuchaytirishi, to'ldirishi yoki rad etishi mumkin. Imo-ishoralar muloqot vositasi sifatida umumiy qabul qilingan, ya'ni belgilangan ma'noga ega bo'lishi yoki ekspressiv, ya'ni nutqning ifodaliligini oshirishi mumkin.
    - Qarasam, cholning ko'krak cho'ntagida boyagi yaltirab turgan soat zanjiri ko'rinmayapti. Dadam uning ko'ziga tikilib, sekin xo'rsindi. – Rahmat. Tirik bo'lsam, shu yaxshiligini qaytaraman.[50]

- Choynak ko'tarib kelsam, chol-kampir haliyam bir nimaning maslahatini qilishyapti. – Barakalla, qizim! - dedi bobom uzatgan piyolamni olib. – Iloyo baxting ochilsin! Ikkovlari bir-biriga zimdan qarab olishdi. Tashqarida eshak hangradi, molxonada sigir mo'radi... [136]
- - Rahmat,qizim! Yuzimni yorug' qilding, - dedi ovozi titrab. - Qo'sha qarigin, o'zingdan ko'paygin, bolam... [126]

Minnatdorchilik – bu yaxshi ish yoki boshqa har qanday yaxshilik uchun minnatdorchilik hissi. Bu biz boshqa odamga, odamlar guruhiga, jamiyatga, biror bir hodisaga, Xudoga, hayotga yoki koinotga nisbatan his qilishimiz mumkin bo'lgan ijobiy tuyg'u. Psixologlarning ta'kidlashicha, minnatdorchilik kimga qaratilganidan ko'ra uni boshdan kechirgan kishi uchun muhimroqdir. Bu tuyg'u hissiy kuchni oshiradi va ichki holatni uyg'unlashtiradi. Minnatdor odam odatda xotirjam va stressga chidamli bo'ladi, hamma narsada ijobiy tomonlarni sezishga intiladi va hamma narsaga nisbatan yanada oqilona munosabatda bo'ladi. Ta'kidlash joizki, dastlab shaxsiy rivojlanishning yuqori darajasida bo'lgan odamlar minnatdorchilikni boshdan kechiradi. Bu tuyg'u o'z – o'zidan yoqimli, lekin u boshqa afzalliklarga ham ega. Xususan, u foydalidir, chunki: kayfiyatni yaxshilaydi. Minnatdorchilik bilan bir vaqtda kuchli salbiy his-tuyg'ularni boshdan kechirish mumkin emas. Biror kishi kimgadir chin dildan minnatdor bo'lsa, u deyarli barcha salbiy narsalarni tashlab yuboradi va buning o'rniga quvonch hissi paydo bo'ladi.

- Jayrona, hech kim o'zga yurtda dardga chalinmasin ekan. O'z yurtida og'risang, yurtningni havosi ham dori bo'ladi. Ammo musofirlikda juda g'arib bo'lib qolarkansan. Yaxshiyam siz bor ekansiz. Ming rahmat. Bo'lmasam, kim biladi, nima bo'lardim. Hech qachon yaxshiligingizni unutmaysan. O'lmasam, sizga bu yaxshiligingizni o'n chandon ortiq qilib qayataman.[106]
- Buyuklar buyugi! Ko'z yoshlarimni, tavbamni qabul qil. Sen eshingingga kelganni quvmaysan. Qancha gunoh va xatalari bo'lsa, kechirasan. Zero, boshqa choram ham, eshigim ham yo'q. Agar qabul etmasang, qaysi eshikka boraman?... Men bir gunohkor qulingman, bugun dargohingga keldim. Menga shunday kunni nasib qilganing uchun o'zingga shukrlar bo'lsin!...[128]

Shuningdek, minnatdorchilik bizda bor narsani payqash va qadrlashni o'rgatadi, muammolardan chalg'itadi, o'zaro munosabatni yaxshilaydi, tushunish va kechirishni o'rgatadi. Minnatdorchilik ko'rinishlari: fe'lli so'z birikmalari (qisqartma shaklida): p.f. – (pour fe'liciter) tabriklashda; p.r. – (pour remercier) – minnatdorchilik bildirishda; p.p.c. – (pour prendre conge') - xayrlashuv belgisi sifatida; p.c. (pour condolence) – hamdardlik bildirishda qo'llaniladi.

### Xulosa

Minnatdorchilik o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan nutqiy birlik sanaladi. Minnatdorchilik (“Baraka berish”) so'zidan – yaxshilik uchun, masalan, e'tibor yoki ko'rsatilgan xizmat uchun minnatdorchilik hissi, shuningdek, ushbu tuyg'uni ifodalashning turli usullari, jumladan rasmiy rag'batlantirish choralari (masalan, minnatdorchilik izhori). Minnatdorchilik- bu sodir bo'layotgan voqealarni hissiy va oqilona baholash asosida yuzaga keladigan murakkab tuyg'u bo'linb, uning ifodasi yuqori darajada marosimdir. Minnatdorchilikning manzili nafaqat aniq odamlar, balki odamlar jamoalari (masalan, ajdodlar) va shaxsiy bo'lmagan shaxslar bo'lishi mumkin: dunyo, Xudo. Nutriy muloqot jarayonida minnatdorchilik bir nechta pragmatic ma'no ifodalab keladi: suhbatni yakunlash, samimiy munosabat, shukronalik, rozilik.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бакалейников Г.Я. Речевой акт благодарности в современном русском языке // Р Бакалейников Iotsdamer Forschungen der Paed. Hochsch.Karl Liebknecht. R.A. Gesellschaftswiss. R. H. 106. Potsdam, 1990.- С. 85-101.
2. Бободжонова Б. Ш Категория вежливости в таджикском языке. Дисс. На соискание учёной степени канд. фил. наук / 2001.- 150с
3. Nordberg B. On closing in alarm calls // Sprak och stil. 1999 №8. S. 65-103.
4. G. Toirova, O. Jurayeva, Z.Abuzalova, M.Norova, F.Norova. Application of Innovative Technologies in Teaching Process. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Special Issue 1, 2020. ISSN: 1475-7192.- P.386-390.
5. Toirova G., Yuldasheva M., Elibaeva I. Importance of Interface in Creating Corpus. // International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN:2277-3878, Volume-8 Issue-2S10, September 2019. – P.352-355.
6. O'. Hoshimov. Ikki eshik orasi.- Toshkent:Global Books,2021.-B.50